



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqq boshlagan №24 (762), 2023-yil 28-dekabr

facebook.com/nkmmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmmk.official

www.ngmk.uz



MASHAQQATLI MEHNATNING AMALIY NATIJALARI



Quvondiq SANAQULOV,
Navoiy kon-metallurgiya
kombinati Bosh direktori

ayni paytda ham barqaror sur'atlarda davom etmoqda.

Joriy yil ko'pming kishilik jamoamiz uchun quvonchlariga boy bo'ldi. Bu davrda o'zimizga bildirilgan yuksak ishonchni mehnatimiz bilan yana bir karra oqlab, ulkan marralarni zabt etishga erishdik. Muhim investitsion loyihalarni amalga oshirib, rejalarini ortig'i bilan bajarishga muvaffaq bo'ldik. Buning barchasi muhtaram Yurtboshimizning qo'llab-quvvatlashi, fidokorona mehnat, aniq maqsadlar yo'lida olib borgan ishlarimiz, hamjihatligimiz tufaylidir. Bozor iqtisodiyoti, raqobat sharoiti va dunyo tajribasi ertasini o'ylagan har bir soha, korxonalar uchun zamon ruhiga mos ravishda rivojlanish yo'lini tanlashni taqozo etmoqda.

Bugun oldimizga katta maqsadlarni qo'yganmiz. Niyatimiz zamonaviy texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarni joriy etish orqali jahonda o'z o'rnimizni saqlab qolish emas, balki undan ham katta marralarni egallashdir. Buning yaqqol misoli sifatida aytadigan bo'lsak, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini foydalanishga topshirilishi natijasida NKMK jahonning oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalari o'rtasida 2016-yildagi 7-o'ringdan 2023-yilda 4-o'ringa ko'tarildi va bu, biz uchun eng katta e'tirof ekanini aytib o'tish o'rinlidir.

Kanadaning "Kitko" xalqaro tahlil markazi e'lon qilgan 2022-yilda dunyodagi TOP-10 ta konlar ro'yxatida "Muruntov" koni oltin qazib olish bo'yicha jahonda yetakchi konlardan biri sifatida tan olingani muvaffaqiyatlarimiz davomidir, albatta. London oltin quyimalari bozori assotsiatsiyasi (LBMA - London Bullion Market Association)ning kombinat bozor talablariga to'la rioya qilish borasida navbatdagi test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tganligini tasdiqlovchi sertifikatini qo'lga kiritdik. Shuningdek, yakunlanayotgan yilda ochiqlik indeksi, raqamlashtirish bo'yicha respublikada birinchilardan bo'ldik.

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash joizki, bugun kombinat yuqori ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, har qanday murakkabliklarga yechim topib, har qanday vazifani amalga oshirishga qodir kadrlar va ilmiy potentsialga ega korxonadir va bu imkoniyatlar ortidan bu yil ham quvonchli natijalarni qayd etdi. Nurota tumani hududida barpo etilgan

6-gidrometallurgiya zavodi va "Pistali" koni bu yilgi eng yirik investitsion loyiha hisoblanadi. Minglab ish o'rniga zamin yaratgan mazkur obyektlar ayni paytda to'liq quvvatda ishlamoqda. Shuningdek, Navoiy mashinasozlik zavodida 25 tonnalik zamonaviy metall eritish pechi, 2-gidrometallurgiya zavodida raqamlashtirilgan yagona boshqaruv markazi, "Muruntov" ohaktosh konida maydalash-saralash majmuasi va boshqa obyektlar, shuningdek, Tomdi tumanida 504 o'rinni ixtisoslashtirilgan maktab-internati va "To'dako" dam olish bazasida Xalqaro shaxmat maktabini zamonaviy uslubda barpo etganimiz bunyodkorligimizning yorqin ifodasidir.

2023-yilning prognoz natijalariga ko'ra, NKMK tomonidan joriy yilda mahsulot ishlab chiqarish 67,2 trillion so'mni tashkil etib, reja 103,8 foizga bajarilishi, 474 million dollarlik investitsiya mablag'lari o'zlashtirilishi, 625 milliard so'mlik mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarilib, reja 112,8 foizga bajarish mo'ljallanayotgani jamoamiz uchun ulkan natijadir. Bu raqam va yutuqlar zamirida, albatta, mas'uliyatni chuqur his etib, kecha-yu kunduz olib borilgan ishlar mahsuli mujassam. Ushbu marralarni zabt etishga qo'shgan munosib hissangiz uchun har biringizga o'zimizning samimiy tashakkurimni bildiraman. Ishonamanki, Yangi yilda ham bunday yutuqlar yanada ko'payadi.

Kombinat solnomasidagi yana bir unutilmas voqea - korxonamiz tashkil topganligining 65 yilligi, jamoa mehnatining yuksak e'tirofi, keng miqyosda nishonlangani bo'ldi. Ayniqsa, sana munosabati bilan Prezidentimizning jamoamizga yo'llagan tabrigi, bir guruh hamkasblarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangan korxonamiz har bir a'zosisiga cheksiz surur va g'urur bag'ishladi.

Hamkasblarimizning mamlakatimiz ravnaqi yo'lidagi fidokorona mehnatlari hamisha Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan yuksak darajada e'tirof etib kelinmoqda. Joriy yilda Xotin-qizlar kuni, Mustaqillik bayrami, kombinat tashkil topganligining 65 yilligi munosabati bilan hamkasblarimizdan 2 nafari "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" faxriy unvoni, 9 nafari "Do'stlik" ordeni, 1 nafari "Mehnat shuhrati"

ordeni va 11 nafari "Shuhrat" medali bilan taqdirlanganini buning isbotidir.

Albatta, har bir ish, qo'yilayotgan qadamlar yaxshi niyatdan boshlanadi. Shu maqsadda, kelgusi yilda juda katta ishlarni amalga oshirishni maqsad qilganmiz. Oldinda bizni bundandana yuksakroq vazifalar kutib turibdi. Boshlagan ishlarni, qolaversa, yangi rejalarimizni izchil davom ettirish, davlatimiz oldida yuzimiz yorug' bo'lishi uchun hamjihatlikda ishlashimiz zarur. Muhimi, bizning navbatdagi maqsad va rejalarimiz aniq.

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni va "O'zbekiston-2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida yaqin yillarda yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishni mo'ljallayapmiz.

"Kokpatas" va "Dovgiztov" oltin konlarida ma'dan qazib olishning 3-bosqichi", Navbahor tumanida "Sarmish" koni zaxirasini ochish va qayta ishlash", "Nuqrakon" va "Kosmonachi" konlaridan kumush tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish", "Yangi Dovon-Toshkon" konida ma'danlarni qazib olishni kengaytirish", "Muruntov" koni o'zlashtirishning V navbat 2-bosqichi" kabi investitsion loyihalar shular sirasiga kiradi. Bu ishlarni ro'yobga chiqarish kelgusida qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va minglab yangi ish o'rinlari ochish imkonini beradi.

"Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da ishchi-xodimlarimizni ijtimoiy himoya qilish, ularning oilasi va farzandlari, mehnat faxriylarimizni farovon yashashi uchun ham juda katta, e'tirofoga molik xayrli ishlar amalga oshirildi.

Fursatdan foydalanib, yana bir bor sizlarni kirib kelayotgan Yangi - 2024-yil bilan chin qalbdan samimiy tabriklayman.

Sizlarga mustahkam sog'lik-salomatlik, oilaviy baxtu saodat, jonajon Vatanimiz ravnaqi yo'lidagi ishlaringizda ulkan zafarlar tilayman.

Lohim, qutlug' qadam bilan kirib kelayotgan Yangi yil jannatmakon yurtimizga tinchlik-xotirjamlik, to'kin-sochinlik, farovonlik olib kelsin!



ZAMONAVIY TEXNIKALAR

Keyingi yillarda "Muruntov" konining kengligi va chuqurligi oshgani, "Aminzo-Amantov" koni tarkibidagi o'ndan ortiq konlarda qazish, ma'dan va tog' jinslarini tashish ishlari jadal tus olgani bois MKB Avtomobil transporti boshqarmasining moddiy - texnika bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Joriy yilning o'tgan davrida 40ga yaqin konchilik texnikalar keltirildi. "Chuqurquduq" koni zaxiralarni o'zlashtirish investitsiya loyihasi doirasida yuk ko'tarish quvvati 220 tonna bo'lgan 28 ta CAT-793D rusumli avtoag'dargichlar keltirilishi rejalashtirilgan edi. Bugungi kunda dunyo miqyosida tog'-kon texnikasi bo'yicha yetakchi hisoblangan "Caterpillar" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan ana shunday 8 ta avtoag'dargich esa yangi yilning dastlabki davrida keltirilishi kutilmoqda. 2024-yilda yana 40 dan ortiq turli xil yangi kon texnikalari keltiriladi.

Nafosat ZIYOYEVA.

■ Sarhisob

KORXONAMIZ KELAJAGI PORLOQ

Kon boshqarmamiz hayotida har bir yil qo'lga kiritilgan ulkan yutuqlar bilan yorqin tarixga aylanmoqda. O'tayotgan yilda ko'pming sonli jamoamiz samarali mehnat qilganligi hamda zimmasidagi vazifalarni sharaf bilan bajarganligini ta'kidlamochim.



Yil bo'linmalarimiz uchun haqiqiy matonat sinoviga, yangi imkoniyatlar va istaklarni amalga oshirish yiliga aylandi, desam yangilishmayman. Eng muhimi, malakali mutaxassislar, jonkuyar ishchi va muhandis-texnik xodimlarning samarali mehnati evaziga joriy yil mahsulot ishlab chiqarish rejasini 104 foizdan oshirib bajarildi. 2023-yil boshi va dekabr oyida ob-havo bilan bog'liq murakkab sharoit vujudga kelganligiga qaramasdan "Oltinni uyumda eritmaga o'tkazish sexi" koni mehnat ahli oltin ishlab chiqarish uchun belgilangan yillik rejaning muddatidan oldin - 20 dekabrda, 2- va 7-gidrometallurgiya zavodlari 21 dekabrda ado etdi.

Texnologik ishlab chiqarish zanjirining asosiy bo'g'ini hisoblangan "Muruntov" konida istiqbolli investitsiyaviy loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilib kelinmoqda. 2022-yilda mazkur konda 112 million 677 ming kubometr tog' jinslari qazib olingan bo'lsa, 2023-yilda "Balpantov" karyeri bilan birgalikda bu ko'rsatkich 115 million kubometrni tashkil etyapti. 2024-yilda "Muruntov" koni tarkibiga qo'shinish rejalashtirilgan "Bessopantov" va "Chuqurqu-

duq" konlari hisobidan tog' jinslarini qazib olishni 133,8 million kubometrqa yetkazilishi kutilmoqda. Tog' jinslarini ochish, qazib chiqarish va ma'danni 2-gidrometallurgiya zavodiga jo'natish rejalarini udalanyapti.

Temir yo'l transporti boshqarmasi temiryo'lchilari "Muruntov" konidan 2-gidrometallurgiya zavodiga sutkasiga tarkibida oltin bo'lgan 141 ming tonnadan ortiq ma'danni yetkazib berib, o'z oldilariga qo'yilgan muhim vazifalarni bajarmoqdalar. Haftaning besh kunida Zarafshon shahridan "Bessopan" maydonigacha bo'lgan 35 kilometrlik masofaga sanoat korxonalarimizda mehnat qilayotgan 2 ming nafarga yaqin ishchi-xizmatchilarni 15 vagonli yo'lovchilar poyezdida o'z vaqtida ishga va ishdan keyin shaharga yetkazish vazifasi ham ularning zimmasida. Mazkur yumushlar uchun 17 ta yo'lovchi, 380 dan ortiq yuk tashuvchi vagonlar, 40 ga yaqin teplovzlar jalb etilgan. Temir yo'l transporti boshqarmasi jamoasi korxonamizning yur va yo'lovchi tashish ehtiyojining 60 foizini qondirib kelmoqda.

Davomi 2-betda

Shimoliy kon boshqarmasi rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lib, oltin rudalarni qazib chiqarish va qayta ishlash faoliyatini amalga oshirmoqda. "Kokpatas" va "Dovg'iztov" konlarining ishga tushirilishi tufayli Uchquduq oltin ruda zaxirasining o'zlashtirilishi jadal sur'atda davom etmoqda. Kon boshqarmasi tarkibidagi 3-gidrometallurgiya zavodi hozirgi kunda chidamli oltin-sulfidli rudalarni texnologiyalar majmuidan foydalangan holda qayta ishlash bo'yicha dunyodagi eng yirik korxonalardan biri hisoblanadi.

KAMCHILIKLAR BARTARAF ETILADI



Korxonamizda ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash va samaradorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etayapti. 3-gidrometallurgiya zavodining ishlab chiqarish uchastkalarida zamonaviy kompleks avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi joriy etilgan bo'lib, texnologik jarayonlarning raqamli boshqarilishini ta'minlaydi va avariylar, to'xtab turishlar, eskirishlarning bartaraf etilishi, ta'mirlash ishlarining zarurligini belgilab, bu bilan yuz berayotgan o'zgarishlarga tezkor munosabat bildirish uchun obyektiv ma'lumotlarni taqdim etadi. Ochiq oltin konlarida yo'ldosh monitoring tizimi negizida og'ir yuk tashuvchi avtoag'dargichlar va ekskavatorlar ishini monitoring qilish tizimi joriy etilgan.

Keyingi yillarda tog'-kon sanoatiga yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash birinchi galdagi vazifa hisoblanmoqda. Avtomobil transporti boshqarmasida haydovchilarning kasbiy mahoratini oshirish maqsadida O'quv-mashg'ulot binosi qurilib, foydalanishga topshirildi va simulyator o'quv amaliy trenajeri bilan ta'minlandi. Transport vositalarini texnik sozligini ta'minlash, texnik xizmat ko'rsatish yo'nalishi va katta o'lchamli shinalarni ta'mirlash uchun TIP-TOP sexi ishga tushirildi. Markaziy ta'mirlash ustaxonasi ta'mirlash maydonidagi ish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida 32 tonna yuk ko'tarish quvvatiga ega ko'priki kran o'rnatildi.

Davomi 2-betda

KOOPERATSIYA ALOQALARI KENGAYMOQDA

Mamlakatimizning yirik sanoat korxonalarini va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni o'rtasida tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi aloqalarini yanada kengaytirish maqsadida, joriy yilning 12-15-dekabr kunlari Toshkent shahridagi "O'zeksposmarkaz"da Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi o'tkazildi.

Mazkur yarmarkada "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati 160 dan ortiq o'z mahsulotlari va import tovarlar namunalari bilan ishtirok etdi. Jumladan, ushbu yarmarka doirasida kombinat tomonidan cooperation.uz portali orqali 57 ta mahalliy ishlab chiqaruvchilardan mahsulotlarni xarid qilish bo'yicha umumiy qiymati 465,2 milliard so'm bo'lgan 167 ta hamkorlik shartnomasi tuzildi. Shuningdek, kombinatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish bo'yicha 3 milliard so'mlik 10 ta shartnoma imzolandi.

Kombinat yarmarka doirasida kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'ygan eng faol tarmoq korxonasi, deb e'tirof etildi.

"NKMK" AJ Matbuot xizmati.

TANLOV G'OLIBLARI SAFIDA

23-dekabr kuni Toshkent shahrida "Yil ayoli", "Gender tenglik faoli" milliy ko'rik-tanlovlarning respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Quvonarli shundaki, "NKMK" AJ Shimoliy kon boshqarmasi "Gender tenglik faoli" tanlovining "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol tuman tashkiloti" nominatsiyasida 3-o'ringa sazovor bo'ldi. Tadbirda Shimoliy kon boshqarmasi ayollar Kengashi raisi Dilafroz Halimovaga tanlov sovrindori diplomini topshirildi.

"NKMK" AJ ayollar Kengashi.

■ Sarhisob

KORXONAMIZ KELAJAGI PORLOQ

■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Keyingi yillarda 2-gidrometallurgiya zavodida oltin ishlab chiqarishni ko'paytirishga yo'naltirilgan strategik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilayapti. Yangi, zamonaviy asbob-uskunalar joriy etish hisobidan tayyor mahsulot hajmini oshirishga erishilmoqda. Zavodning ikkinchi navbati foydalanishga topshirilishi ma'danni qayta ishlash va qimmatbaho metall ishlab chiqarishda o'sish sar'atini ta'minlayapti. Ishlab chiqarish sur'atini ifodalovchi raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak, zavodda 1991-yilda 20 million tonna ma'dan qayta ishlangan bo'lsa, 2018-yilda bu raqam 39 million, 2022-yilda 51,3 million tonnaga yetdi. Joriy yilda esa 51,7 million tonna ma'dan qayta ishlanmoqda.

Maydalash sexining ta'mirlash maydonchasi hamda sianid natriy ombori maydonida nasosga ega zavod o'rnatilib, 29-sonli tegirmon blokida bo'tanani chiqarib tashlashga mo'ljallangan 273 millimetr diametrlilik quvurlar estakadasi qurilib, ishga tushirildi. Sorbsiya va regeneratsiya sexining regeneratsiya bo'linmasi tomonidan chiqindi eritmalardan kumush ajratib olish tuguni ishga tushirilishi ham mo'ljallanyapti.

2023-yil oxirigacha 7-sonli GMZdan chiqariladigan hovuz suvi hajmini soatiga 1500 kubmetrga oshirish rejalashtirilgan. Ayni paytda chiqindini tashish, joylashtirish va aylanma suv ta'minoti sexining 2-sonli nasos stansiyasidan 7-sonli GMZgacha 26,2 kilometrga cho'zilgan, diametri 630 millimetr bo'lgan po'lat quvurlardan suv o'tkazgichning ikkinchi liniyasi o'rnatilmoqda.

2016-yildan buyon texnologik guruh xodimlari gravitatsiya, magnit va flotatsiya kabi buyitish usullari bilan volfram konsentratini olish imkoniyatlarini jadal o'rganmoqdalar. Hozirda flotatsion konsentrat olish maqsadida flotatsiya usku-



nalarini qurish va joriy etish ishlari olib borilmoqda.

Har yili respublikamiz xazinasiga oltin va kumush yetkazib berish buyurtmasi ortig'i bilan bajarilishidan tashqari yangi ish o'rinlari yaratilayotganligi hudud ijtimoiy muammolarini hal etishga xizmat qilmoqda. "Balpantov" va "Tomdibuloq" konlarida 653 ta, "Turabay" konida 900 ta yangi ish o'rinlari ochildi.

2023-yil "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ tizimida faoliyat yuritayotganlar uchun muhim tarixiy yil bo'ldi. Jahonga mashhur korxonamiz o'zining shonli 65 yillik yubileyini nishonladi. Har birimiz shunday shuhratli korxonaga vakili ekanligimizdan cheksiz faxrlanamiz. Yubiley munosabati bilan kon boshqarmamizning mas'uliyatli mutaxassislaridan 15 nafari "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi, 7 nafar xodim "Navoiy kon-metallurgiya kombinati faxriysi" degan nomga munosib ko'ildi. Prezidentimiz farmoni bilan 4 nafar xodimimiz Davlat mukofotlari - "O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi", "Do'stlik" ordeni va "Shuhrat" medali bilan taqdirlandilar. Albatta, kombinatimizda o'zining halol mehnati bilan mam-lakatimiz taraqqiyoti, yurtimiz farovonligini ta'minlashdek ezgu ishlarga munosib hissa qo'shayotgan har bir xodim hurmat va e'tibor qozonmoqda. Mustaqillik yillarida kombinatimizda faoliyat yuritib, Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan turli kasb egalarining 150 nafari Markaziy kon boshqarmasi ishchi-xodimlaridir. Bizning eng katta yutuqimiz boshqarmamizning 21 ming nafardan ortiq ishchi-xodimlardan iborat hamijhat jamoasi zimmasida katta vazifalar turganligini teran anglaydi. Bunday mas'uliyat hissi kelgusida yangi dovonlarni zabt etishimizga mustahkam poydevor yaratadi. Shu ma'noda ulkan korxonamizning kelajagi yanada porloq de-yishga to'la haqlimiz.

Elmurod XALIKULOV,
Markaziy kon boshqarmasi
direktori.

O'tayotgan yilda kon boshqarmasining jamoasi ulkan ishlarni amalga oshirishga erishdi. Bu davrda 2,5 million tonna ma'dan qazib olinib, reja 102,5 foizga uddalandi. Ma'danni qayta ishlash rejasini 102,1 foizga bajarildi. Jamoamiz shunday yutuqlar bilan 2024-yilni qarshi olmoqda. Qo'lga kiritilayotgan yutuqlarimiz zamirida zahmatkash ishchi-xodimlarimizning halol mehnatlari mujassam.

ISHONCH VA MAS'ULIYAT HISSI

Janubiy kon boshqarmasining nafaqat kombinat, balki mam-lakatimiz iqtisodiyotida tutgan o'rni beqiyos. Kon-metallurgiya sanoatida mehnat qilishning o'zi bo'lmaydi. Bu har bir kasb egasidan ulkan matonat, cheksiz sabr-bardosh va fidoiyligni talab etadi. Bugun "Zarmitan", "Gujumsoy" va "Marjonbuloq" konlari, 4-gidrometallurgiya zavodi, "Marjonbuloq" oltin ajratish sexi va boshqa bo'linmalar zahmatkashlari, shu zamin qorako'zlari o'z ishlarni sharaf bilan uddalab kelayotgan e'tirofga munosibdir. Qariyb 6 ming nafarga yaqin ishchi-xizmatchilar, muhandis-texnik xodimlardan iborat jamoamiz kombinat ravnaqi, yurt iqtisodiyotini yuksaltirishga hissa qo'shib kelmoqda.

Hisob-kitoblarga ko'ra, hozirga qadar bizning konlarda aniqlangan ma'dan zaxirasi 86 million tonnani tashkil etadi, ayni paytda uning 30 million tonnasini yoki 35 foizi qazib olingan. Qolgan zaxira 35 yilgacha yetadi. Jadal sur'atlarda olib borilayotgan geologiya-qidiruv ishlari esa ma'dan zaxiralarni izlab topish, ishlab chiqarishni xomashyo bilan uzluksiz ta'minlash ikonini berishi, shak-shubhasiz.

Ma'lumki, 4-gidrometallurgiya zavodining ishlab chiqarish texnologiyasi boshqa gidrometallurgiya zavodlaridan tubdan farq qilib, Markaziy Osiyoda yagona hisoblanadi. Zavodda o'rnatilgan texnologiyalar bugungi kunda ma'dandan oltin ajratib olish ko'ratkichini 93 foizga yetkazish, mahsulot tannaxirini esa 15 foizga kamaytirishni ta'minlayapti.

Kon boshqarmamiz yutuq va istiqboliga qadimdan e'tibor qaratilgan, "Zarmitan" konida so'nggi yillarda qazilma boyliklarni o'zlashtirish va ko'paytirish borasida keng ko'lami ishlar olib borilganini alohida ta'kidlash joiz. Pirovardida kunda ma'dan qazib olish ko'lami yanada kengaydi. Ushbu kundan 2011-yilda 640 ming tonna ruda qazib olingan bo'lsa, 2023-yilda 804 ming tonnaga yetgani fikrimizning tasdiqidir.

2023-yilda kunda ma'dan qazib olish rejasini 107 foizga bajarildi. Yer osti kon lahimlarini qazib o'tish ishlari rejasini 103 foizga uddalandi. Mazkur kunda zaxiralarni aniqlash, ko'paytirish va o'zlashtirishga qaratilgan muhim ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirilmoqda. Hozirga qadar aniqlangan zaxira kunda ma'dan

qazib olishni 2058 yilgacha ta'minlash imkonini beradi. Istiqbolli loyihalardan biri - qiymati 138 million AQSh dollari bo'lgan "Zarmitan" oltin-ruda zonasi konlari negizida kon-ruda kompleksining quyi sathlarini (0.00 m. gacha) o'zlashtirish" yirik investitsion loyihasidir.

Muhim loyiha doirasida Chexiya Respublikasining "Mine Construction Alliance s.r.o." kompaniyasi bilan hamkorlikda olib borilgan uch yillik samarali mehnat mahsuloti sifatida O'zbekiston konchilik sanoati tarixida ilk bor shaxta diametri 6,5 metr va chuqurligi ming metrga yetkazildi. Buning uchun tik va texnik jihatdan nihoyatda murakkab hisoblangan qazish ishlari olib borildi. "Skibli" shaxta stvoli barpo etilishi har yili o'rtacha 1,4 million tonna ma'danni yer yuzasigacha chiqarish va 90 ta yangi ish o'rni yaratish imkonini berdi.

2009-yilda ishga tushirilgan "Gujumsoy" konida ikkita tik stvol va ikkita 5G va 3P qiya transport yo'llari mavjud bo'lib, ma'danni yer sathiga chiqarishga xizmat qilmoqda. Kon jamoasining shijoati bilan belgilangan rejalar ortig'i bilan bajarilib kelinyotgani, e'tirofga arziqlik ishlari haqida iliq fikrlarni aytish mumkin. Erishilgan natijalarni raqamlar bilan taqqoslaydigan bo'lsak, 2011-yilda ushbu kunda bor-yo'gi 46,2 ming tonna ruda qazib olingan bo'lsada, bu ko'rsatkich 2023-yilda 862 ming tonnani tashkil etdi ("O'rta" yer osti kon ishlari bilan birgalikda). Yoki 2011-yilda bu kunda 295 nafar ishchi-xizmatchi mehnat qilgan bo'lsa, hozirda ularning safi 1 167 nafarga yetgan. 2023-yilda kundan 868 ming tonna ma'dan qazib olinib, reja 102 foizga va yer osti lahimlarini qazish ishlari rejasini 101 foizga uddalandi.

Ahil jamoamiz Yangi - 2024-yilni munosib yutuqlar bilan kutib olmoqda. To'yga to'yona bilan deganlaridek, barcha rejalar ortig'i bilan bajarildi. Oltin ishlab chiqarish bo'yicha yillik rejani mudatidan oldin bajarganligimiz munosabati bilan kombinat bosh direktorining jamoamizga yo'llagan Tashakkurnomasini kuchimizga-kuch qo'shib, yangi marralar sari ilhomlantirmoqda.

Tolliboy YULDASHEV,
Janubiy kon boshqarmasi direktori.

KAMCHILIKLAR
BARTARAF
ETILADI

■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

"2023-2024-yillarda "Sharqiy" va "Dovg'iztov" konlarini texnik va texnologik qayta jihozlash" va "Mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini saqlash" investitsiya loyihalariga muvofiq 2 dona Hitashi EX-1200, 2 dona EKG-10 ekskavatorlari va 4 dona Flexi ROC D 55 burg'ilash uskunalarini sotib olish rejalashtirilgan. Bunday texnikalar yordamida 2030-yilgacha bu konlardagi ma'danlarni qazib olish loyihasining 2-navbati bo'yicha 28 ta karyerda kon ishlarni tugatish mo'ljallanyapti. Hozirgi vaqtda "Dovg'iztov" konida 17,9 million va "Kokpatas" konida taxminan 31 million tonna oltin tarkibli ma'dan zaxiralarni tasdiqlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya ko'mitasi tomonidan geologiya-qidiruv ishlari olib borilmoqda.

Mazkur loyihalar Uchquduq iqtisodiyotining turli sohalariga daxldordir. Qurilayotgan sanoat obyektlari mintaqaning ishlab chiqarish, transport va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va katta hajmdagi mehnat resurslarini talab qiladi. Bu esa mahalliy aholining turmushi va bandlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi amalga oshirilayotgan "Inson qadri uchun" degan tamoyil asosida korxonamizda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish barobarida, ishchi-xodimlar mehnatini yengillashtirishga e'tibor berilmoqda. Keyingi ikki yilda Markaziy moddiy-texnika bazasi, Kon jihozlarni ta'mirlash sexi, "Dovg'iztov" koni, Avtomobil transporti boshqarmasi, 1-sonli avtokorxonada kapital va joriy tamirlash ishlari olib borildi. Shuningdek, "Sharqiy" koni portlatish moddalar ombori, Temir yo'l sexi markaziy stansiyasi, Markaziy arxiv xonalari joriy ta'mirlanib, ishchi-xodimlarga qulay va shinam shart-sharoitlar yaratib berildi, 1-sonli avtokorxonaning foydalanish uchastkasi yangi binosi qurib bitkazildi. 3-GMZga qarashli chiqindilar chiqarish poligonining 3-navbat 3-bosqichi qurilish ishlari to'liq yakunlandi.

Barcha bunyodkorlik ishlarini ahil jamoamiz ishchi-xizmatchilari, muhandis-texnik xodimlari bajarishyapti. Muhimi, ularning fidokorona mehnatlari qadrlanmoqda. So'nggi yillarda 11 nafar ishchi-xodimlarimiz Davlat mukofotlariga loyiq topilishi buning isbotidir.

2023-yil yakunlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, barcha korxonada, bo'linma va uchastkalarda birdek, imkoniyat darajasida ishlab, deya olmaymiz. Oqibatda ba'zi iqtisodiy qo'rsatkichlar yuzasidan rejalarini oshirib uddalab, keskin o'sish sur'atlarini ta'minlay olmadik. Kiriq kelayotgan 2024-yilda joriy yilda ishlab chiqarishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etib, jamoamiz oldida turgan vazifalar to'liq bajarilishiga erishamiz.

Ne'matillo AXATOV,
Shimoliy kon boshqarmasi direktori.

"Qizilqum" kon boshqarmasida oltin, temir kuprosi, suyuq natriy silikati kabi iqtisodiyot va sanoatimiz rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqariladi. Hozirgi kunda kon boshqarmamiz tomonidan "Rohat", "Daykali", "Qoraqo'ton", "Pistali" oltin konlarini o'zlashtirish bo'yicha ochiq va yer osti kon ishlari olib borilmoqda. Qazib olingan oltin ma'danlar 1- va 6-gidrometallurgiya zavodlarimizda alohida texnologik sxemalar bo'yicha qayta ishlanmoqda.

YAKUNLAR — QUVONCHLI, MARRA — YUKSAK

Joriy yilda "Aristantov" karyeri negizidagi yangi konlarda ish boshlandi. "Qoraqo'ton" koni negizida yangi sathlar ochilib, bu konlarda konchilik ishlari jadal tarzda olib borilmoqda.

Yakunlanayotgan yilda kombinat va kon boshqarmamiz jamoalari "Pistali" konida oltin tarkibli ma'danlarni qazib olish va 6-gidrometallurgiya zavodi qayta ishlab mahsulotini qurish" investitsiya loyihasi ijrosini ta'minlash yo'lida keng ko'lami ishlarni amalga oshirdi. Umumiy qiymati 274,7 million AQSh dollari bo'lgan va yiliga 4 million tonna oltin ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash imkonini beradigan mazkur loyihaning ro'yobga chiqarilishi ahil jamoamizning joriy yildagi katta yutuqi bo'ldi.

Bugungi kunda "Pistali" konida 1 ming 300 nafar ishchi-xodim faoliyat olib bormoqda. Kon negizida 6-gidrometallurgiya zavodi, "Navoiy-Pistali" elektr uzatish tarmoqlari, zavod va karyer uchun yuqori kuchlanishli stansiyalar, kon uskunalarini ta'mirlash sexi, avtosaroy, vaxta bilan ishlaydigan xodimlar uchun 500 o'ringa mo'ljallangan ishchilar shaharchasi, oshxona va yotoqxonalari, suv haydash stansiyasi va majmua tarkibiga kiritilgan boshqa inshootlar qurilib bitkazildi.

8-iyul kuni 6-son gidrometallurgiya zavodiga

O'tib borayotgan yilni yorug' yuz bilan kuzatyapmiz. Bu yil zavodimiz tarixida zarhal harflar bilan bitishga loyiq voqealar bo'ldi. Qo'shaloq bayramlarni, Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil topganligining 65 yilligini hamda Navoiy mashinasozlik zavodining 60 yilligini nishonladik. E'tirofisi, bu qutlug' sanalarga yutuq va muvaffaqiyatlar bilan yetib keldik.

Jamoamizning halol va fidokorona mehnati, itilishi natijasida zavodimiz 2023-yilda og'ir mashinasozlik sanoati korxonasiga aylandi. Keyingi yetti yil zavodimiz tarixida yangi sahifa ochgan bo'lsa, joriy yilda alohida quvonchli natijalarga erishildi. Jumladan, zavodda ishlab chiqarish hajmini oshirish borasida olib borilgan izehil sa'y-harakatlarimiz tufayli joriy yilda umumiy qiymati 25,1 million dollar bo'lgan ikkita loyiha ishga tushirildi. "Mexanika-yig'uv sexini texnik va texnologik qayta jihozlash" investitsion loyihasi asosida yirik gabaritli detal-larga ishlov berish uchastkasi ishga tushirilishi bilan og'irliqi 980 tonnaga bo'lgan tegirmonlar, yanchish uskunalarini, nasoslar, quyultirgichlar



ning birinchi bloki ishga tushirildi. 2 iyul kuni yangi zavodda katodli oltin ko'rinishidagi birinchi tayyor mahsulot olindi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayrami arafasida "Pistali" koni negizidagi 6-gidrometallurgiya zavodida oltin tarkibli ma'danlarni yanchish jarayoni unumdorligini oshirish maqsadida ikkinchi tegirmon bloki foydalanishga topshirildi.

ning ko'p qismi Navoiy mashinasozlik zavodida mahalliyashtirilgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan, "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan mahalliy oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Nurota tumani "Tinchlik", "Qizilcha", "Temirquvuq" mahallalarida yashovchi 95 nafar kishi "Pistali" koni va 6-gidrometallurgiya

zavodiga ishga qabul qilinib, doimiy daromad manbaiga ega bo'ldi.

Istiqbolli ma'dan manbalarini o'rganish doimiy e'tiborimizda bo'lib, kelajakda "Baxtli", "Qorator", "Qumsoy" kabi yangi konlarning o'zlashtirilishi rejalashtirilmoqda. "Qoraqo'ton" konida Ziyovuddin ma'dan maydonidagi "Yangi Davon" konining sharqiy qismini, "Tashkon" koniga tegishli ma'dan tanalarini mukammal o'rganish,

"Tulali" koni zaxiralarni dastlabki baholash, "Shimoliy Qoraqo'ton" va "Shimoliy" uchastkalarining qator istiqbolli ma'dan manbalarini dastlabki o'rganish yuzasidan qidiruv ishlari olib borilmoqda.

Shuni faxr bilan ta'kidlash kerakki, kon boshqarmamiz jamoasi yangi yilni arzigulik mehnat sovg'alari bilan kutib olmoqda. Korxonamizda oltin ishlab chiqarish bo'yicha belgilangan yillik reja 2023-yilning 17-dekabr kuni sharaf bilan bajarildi. Shuningdek, tog' jinsini qazib olish, ma'danni qayta ishlash rejalarini ham ortig'i bilan uddalandi. Mahsulot tannaxirini pasaytirish yuzasidan belgilangan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilgani bois 69 milliard so'mdan ziyod iqtisodiy tejamlorlikka erishildi.

Yangi yilga mo'ljallangan vazifalar ko'lami va mas'uliyati ahil jamoamizni yanada yuksak dovonlarga chorlamoqda. Kiriq kelayotgan yilda ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, kon imkoniyatlardan samarali foydalanish, yangi korxonani ochish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash evaziga barcha iqtisodiy ko'rsatkichlar yanada yaxshilanishiga erishamiz.

Avaxxon EZOXONOV,
"Qizilqum" kon boshqarmasi direktori.

ULKAN MAQSADLAR BILAN

moy-iqtisodiy rivojlantirish, mahalliy yoshlarni ish bilan ta'minlashga ham zamin yaratadi. 6-gidrometallurgiya zavodi qurilishida qo'llanilgan asosiy texnologik uskunalar, turli dastgohlar, butlovchi materiallar, sharli tegirmonlar ham chetdan olib kelinmasdan, zavodimizda tayyorlangani evaziga katta mablag' tejab qolindi.

Zavodimizda zamon talabidan kelib chiqib, mahalliyashtirish va import o'rni bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish turlari va hajmini ko'paytirishga yetarli e'tibor qaratilayapti. 2023-yilda mahalliyashtirish dasturi doirasida 79 ta, import o'rni bosuvchi mahsulotlardan 26 ta loyiha bo'yicha 560 milliard 120 million so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, reja oshirib bajarildi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 65 yilligi munosabati bilan muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mironovich Mirziyoyevning kom-

binat jamoasiga yo'llagan tabrigida "Mahalliyashtirish dasturi doirasida yangi quvvatlar uchun zarur asbob-uskunalar va jihozlar hududning o'zida ishlab chiqarilmoqda. Birgina Navoiy mashinasozlik zavodida yiliga o'rtacha 15 ming turdan ziyod import o'rni bosadigan mahsulotlar tayyorlanayotgani buni tasdiqdaydi", - degan so'zlari jamoamiz kuchiga-kuch, g'ayratiga-g'ayrat qo'shib, yangi dovonlarga ruhlantirmoqda.

Davlatimiz rahbarining "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJning 65 yilligi munosabati bilan bir guruh faol konchilarni mukofotlash to'g'risidagi farmoniga muvofiq g'ymachilik sexi boshlig'i Zafar Bobodo'stov "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Bu kabi e'tibor va e'zoz biz, mashinasozlarga faxr-iftixor, shijoat bag'ishlaydi.

2024-yilda umumiy qiymati qariyb 553 milliard so'mlik 105 ta loyi-

ha bo'yicha mahalliyashtirilgan va import o'rni bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni mo'ljallaganmiz. Avvalo, yangi turdagi metall kesish dastgohlari, zamonaviy sharli tegirmonlar, ekskavatorlarning reduktor va kovshlari, gidrometallurgiya zavodlari uchun uskunalar va ehtiyot qismlar tayyorlash ko'zda tutilgan. Yangi yilda Investitsiya dasturi doirasida stanoksozlik yanada rivojlantiriladi. Buning uchun yuqori aniqlikda ishlaydigan 28 ta zamonaviy stanoklar xarid qilinishi evaziga kelgusida ish ko'lamin oshirishdan tashqari 200 ta yangi ish o'rni yaratiladi. 2024-yilga ana shunday yuksak maqsadlar bilan qadam qo'yayotgan ahil jamoamiz yangi yilda yutuqlarni yanada ko'paytirishiga shubha yo'q.

Jahongir HAYITOV,
Navoiy mashinasozlik zavodi direktori.

■ Davlat mukofoti sovrindorlari

Quyida Shimoliy kon boshqarmasining NKMKning shonli yubileyi munosabati bilan davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'lgan xodimlari dil izhorlarini gazetxonlar e'tiboriga havola etamiz.

E'TIROFDAN MAMNUNMIZ

Guljamila TURGANBOYEVA, 3-gidrometallurgiya zavodi quyultirish, sanoat chiqindilarini zararsizlantirish va reagentlarni tayyorlash sexi katta ustasi, "Do'stlik" ordeni sohibasi.

- Men cho'l ayoliman. Erta tongdanoq ishga o'tlanaman. Kuning jazirasimi, qishning qahratonimi zavodimizda ish bir maromda davom etadi. Chunki biz mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan qimmatbaho metallni yetkazib berishimiz kerak. Birovga aytmasam ham mukofot olayotganda qandaykiyinsam, sochimi qanday turmaklasam, deb rosa o'yladim. Lekin taqdirlash marosimiga borib bildimki, mukofotlanayotganlar menday oddiy ayollar ekan. Mehnatkash O'zbekiston ayollarining qadr topayotganini mukofotni qabul qilish onlarida yurakdan his qildim. Navoiy kon-metallurgiya kombinatidek ulkan korxonada uzoq yillar ishlab, hurmat-e'tibor, qadr topganligimdan xursandman.



Maya SOY, Shimoliy kon boshqarmasi budgetlashtirish va kontrolling bo'limi boshlig'i, "Do'stlik" ordeni sovrindori.

- Ko'ksimga davlat mukofotini qadashar ekan, o'quvchilik yillarimdagi bir voqea yodimga tushdi. 7-8 nafar o'quvchi maktab oshxonasiga kirib darsga kech qolibmiz. O'sha paytda jazolar shunchalik katta bo'larkanmi, bizni sinfga kiritishmay, ota-onamiz bilan birgalikda maktabga kelishimizni aytishdi. Ertasiga otam bilan bordim. Otam kolxozchi, katta oilaning boshlig'i bo'lgani uchun hatto ohorli kiyimi ham yo'q edi. Maktab direktori otamga meni "eng a'lochi, tirishqoq qiz" deb rosa maqtadi. Otam ketganidan keyin esa shunday tanbeh berdiki, bu men uchun bir umrik saboq bo'ldi. 36 yillik faoliyatim davomida qayerda ishlamay, insonlarning vaqtini qadrlashga harakat qildim. Hammani oddiygina kiyingan otam timsolda tasavvur etdim. Hozirgi kunda bo'limimiz solish va monitoringni amalga oshirish ishlarini zamon talablariga mos ravishda olib borishga harakat bo'yicha ijobiy natijalarga erishyapmiz. Men, koreys qizi O'zbekistonda tug'ilganimdan, qo'lari oltintopar, qalblari odamsevar Uchquduq xalqi bilan hamnafas ekanligim, birga faoliyat ko'rsatayotganligimdan faxrlanaman.



xodimlari bilan ShKB bo'linmalaridagi rejayiv - iqtisodiy xizmatlarni uslubiy jihatdan boshqarish, tartibga qilyapmiz. Kon boshqarmasi faoliyatini kompleks tahlil qilib, ishlab chiqarish rentabelligini oshirish qalblari odamsevar Uchquduq xalqi bilan hamnafas ekanligim, birga faoliyat ko'rsatayotganligimdan faxrlanaman.

Shodiyor UMAROV, Avtomobil transporti boshqarmasi dispetcheri, "Shuhrat" medali sohibi.

- Mehnat faoliyatimni 2003-yilda Uy-joy kommunal xo'jaligi 2-sonli yotoqxonada boshlaganman. Kombinatta ulg'aydim, kasb-hunar egalladim, yillar davomida ustoz degan nomga ega bo'ldim. Ayni paytda boshqarmamizda bir yarim ming nafarga yaqin ishchi-xodim va mutaxassislar mehnat qilib, Shimoliy kon boshqarmasi jamoasi oldida turgan vazifalarni bajarishga hissa qo'shmoqdalar. Ular safida ekanligim va mehnatim yuksak darajada e'tirof etilganligi meni yanada barakaliroq mehnat qilishga ruhlantiryapti.



Nasrullo BO'RIYEV, "Sharqiy" ochiq usulda qazib olish koni burg'ilash qurilmasi mashinisti, "Shuhrat" medali sohibi.

- Prezidentimiz tomonidan Davlat mukofotiga munosib ko'rilgan hayotimdagi eng unutilmas kun bo'ldi, desam adashmayman. "Shuhrat" medalini taqib, birinchi bo'lib opam ishlaydigan Uchquduq tumanidagi 18-maktabga bordim. Mehnatim ortidan shunday baxtga musharraf bo'lganimdan quvonchim cheksiz edi. Navoiy kon-metallurgiya kombinatidek gigant korxonada ishlayotganimdan faxrlanishadi. Tug'ilib o'sgan makonim - Samarqand viloyati Paxtach'i tumaniga borsam odamlar bir-birlariga "Bu oltin kombinatda ishlaydi" deyishadi. Endi bilsam, bu haqiqat, mening kombinatim - oltin kombinat ekan.



Mehridin MUHAMMEDOV, "Dovg'iztov" koni ekskavator mashinisti, "Shuhrat" medali sohibi.

- Men 2002-yil 1-mart, "Dovg'iztov" koni foydalanishga topshirilgan kundan boshlab, shu yerda ekskavator mashinisti sifatida faoliyat yuritib kelyapman. Yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida konning "Ajibugut", "Dovon", "Birinchi sentabr" karyerlaridan ekskavatorim yordamida kon massasi va tog' jinslarini avtoag'dargichlarga yukladim. Yoshligimda duradgorlik qilganman. O'shanda ko'p yigitlar menga shogird tushadi, usta bo'laman, derdim. Bugun ham ana shu karyerlarda yelkama-yelka ishlayotgan yigirma nafardan ziyod shogirdlarim bor. Kasbimning barcha sir-asrorlarini ularga o'rgataman. Yoshlarimiz ana shu kengliklar bag'rida yashirib yotgan boyliklarni o'zlashtiradigan asosiy kuch, korxonamiz kelajagidir.



Laylo KARIMOVA yozib oldi.

MUKOFOT MAS'ULIYAT YUKLAYDI

Rahmatli dadam Maxmanazar Karimov ziyoli inson edilar. Biz farzandlariga har doim hayotda biror-bir shioring bo'lsin, derdilar. Nemis yozuvchisi va faylasufi Gyotening "Umid bilan suqilgan tayoq, bir kun berar meva-yu yaproq" degan so'zlari hayotiy shiorimga aylangan.

Qariyb 15 yil 3-sonli Tibbiyot-sanitariya qismi sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik markazida laborant bo'lib faoliyat ko'rsatdim. Turmush o'rtog'im Nizomjon Salimov uzoq yillardan buyon zamonaviy, qulay imkoniyatlarga ega og'ir yuk tashuvchi avtoag'dargich boshqaradi. Ikkala o'g'lim ham konchilik sohasida oliy ma'lumotli mutaxassislar. Shu bois oilamizdagi suhbatlardan menda ham bu sohaga

qiziqish uyg'ondi. 2017-yilda yangi "Auminzo-Amantoy" koni ochilganidan o'ng ish faoliyatimni shu yerda davom ettira boshladim. Konning texnologik laboratoriyasida kimyoviy tahlil laboranti bo'lib ishlab kelmoqdaman. Inson qayerda va qaysi kasbda ishlamasin, o'z ishini sevib bajarmasa, natija bo'lmaydi. Biror ishni boshlashdan oldin uni mukammal o'rganishga harakat qilaman. Har doim o'z ustingizda

ishlasangizgina ko'zlagan maqsadningizga erishasiz. Yoshi mendan kichik bo'lsa-da, o'sha sohada mendan tajribaliroq hamkasblarimdan bilmaganlarimni tortinmasdan so'rayman. Bir-birimizga o'rgatib, bir-birimizdan o'rganib kelayotgan jamoamiz xotin-qizlarining ahilligi bois kungi va tungi smenalarimizda 12 soatlik vaqtning qanday o'tganini sezmay qolamiz.

Dam olish kunimizda taqdirlanganim haqidagi xushxabarni menga yetkazgan hamkasbim xuddi o'zi shu yutuqqa erishgandek quvonardi. Nogohon ko'zimda yosh qalqib, "nahotki" deyman ich-ichimda. Qo'llarim qalqirib, telefonimni titkilaيمان. Ha, bu men uchun kutilmagan sovg'a edi. Hayotda

shunday onlar bo'ladi, bu lahzalarni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. O'sha lahzalarda men baxtni, baxtiyorlikni o'zimdada mehnatlarim rahbariyat tomonidan munosib taqdirlangan, bir necha bor Faxriy orliqlar va qimmatbaho sovg'alar olganman. Davlat mukofotiga munosib deb topilishim alohida quvonchli voqea bo'ldi. Bu yuksak mukofot nafaqat menga, balki butun jamoamga berilgan, deb bilaman. Bunday e'tirof esa zimmamga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Feruza KARIMOVA, Markaziy kon boshqarmasi "Auminzo-Amantoy" koni texnologik laboratoriyasi kimyoviy tahlil laboranti.

MEHNATIM - SHARAF KELTIRDI

Muhtaram Yurtboshimizning "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati tashkil etilganining 65 yilligi munosabati bilan ishlab chiqarish ilg'orlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi Farmonlariga muvofiq kombinatda ishlayotgan ishchi-xodimlar yuksak Davlat mukofotlariga sazovor bo'lishdi. Mening ham o'z sohamdagi 26 yillik mehnatim "Shuhrat" medaliga munosib ko'rildi.

Inson o'z hayotida kasbni to'g'ri tanlay olmagina zavq bilan ishlaydi, ko'ngli to'q bo'lib yashaydi. Otam o'qituvchi, onam esa uy bekasi bo'lganlar. Otam ziyoli inson bo'lganliklari bois biz, 6 nafar farzandlarini ham kelajakda biror kasbni mukammal egallab, yaxshi mutaxassis bo'lishga da'vat etardilar. Rahbariyat ishlarini alohida ta'kidlab, yosh ishchilarga namuna qilib ko'rsatganda tanlagan kasbimga mehrim ortadi. Bir umr halol mehnati orqasidan oila tebratgan oddiy o'qituvchi otamning pand-nasihatlari yodimga tushaveradi.

Jonajon kombinatimizning shonli yubileyida taqdirlanganimda Avtomobil transporti boshqarmasida greyder haydovchisi bo'lib ishlayotgan akam, "Alpomish" sport majmuasida faoliyat yuritayotgan opam, 2- hamda 7-gidrometallurgiya zavodlarida ishlayotgan ukam va singlim o'zimdanda ham ko'ra ko'proq xursand bo'lishdi. Chunki, butun oilamiz kombinatda faoliyat yuritib kam bo'lgani yo'q. Biz to'kin-sochin, farovon yashayapmiz. Mehnatlarimiz munosib rag'bat topyapti.

Turmush o'rtog'im bilan birga 3 nafar farzandni umid bilan o'stirayapmiz. O'g'illarim Hasan va Husan neft va gaz konlarini qidirib topish sohasida talaba. Qizimiz o'rta maktab-

da o'quvchi. Ularning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratamiz. Bolalarim bilan birga dars tayyorlashga ham, oilaviy yig'inlarda nooddiy sovg'alar hazirlashga ham vaqt topaman. Hammamiz ham hayotda yaqinlarimizning baxtiyorligi uchun mehnat qilamiz. Bu bilan hayotimizga mazmun qo'shilganday bo'ladi. Hayotda qanday yutuqqa erishgan bo'lsam, barchasi yaxshi ko'rgan kasbim, har doim meni qo'llab-quvvatlagan yaqinlarim va jamoam tufayli.

Biz, 16 nafar kishilik jamoamiz bilan 5-gidrometallurgiya zavodining ma'danni qayta ishlashini uziksiz ta'minlashga hissa qo'shmayapmiz. Albatta, ishlab chiqarishda turli vaziyatlar bo'ladi. Maydalash tegirmonlarining maxsus qismlarini ta'mirlab, ish ko'lamin barqarorlashtirishga harakat qilamiz. Zavodimizda har bir ishchi o'z vazifasini mas'uliyat bilan bajaradi. Kasbim ortidan hurmat e'tibor va e'tirof ham erishdim. Bundan keyin ham imkonim boricha shu sohaning rivojiga hissa qo'shish oliy maqsadim bo'lib qolaveradi.

Ixtiyor USMONOV, Markaziy kon boshqarmasi 5-gidrometallurgiya zavodi ta'mirllovchi-chilangari.

Mana, bu yil konchilik sohasiga kirib kelganimga 40 yil to'ldi. Umrimning shuncha davrini poyoni yo'qdek ko'ringan Qizilqum kengliklaridan qimmatbaho tabiiy boyliklarni qazib olishga tayyorlash uchun burg'ilash ishlarini olib borish bilan o'tkazdim.

KASBIMDAN KAMOL TOPDIM

Har qanday sharoitda o'zimga berilgan vazifani mas'uliyat bilan bajarishga harakat qildim. Vijdonan va halol ishlagan odatlanganman. Shogirdlarim, farzandlarim va yaqinlarimga ham shunday xizmat qiling, deyman. O'g'illarim Aleksandr va Vladimir ham mening kasbimni tanlashdi. O'g'lim Vladimir bilan birga ishlaymiz, Millatlararo hamjihatlik hukm surayotgan jamoamizda, mehr-oqibatli odamlar orasida ishlash men uchun sharaf. Shu boisdan doimo yuksak mas'uliyat hissi bilan sevimli ishxonamga oshiqaman.

Muhtaram Yurtboshimiz tomonidan "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlanganim men uchun katta quvonch bo'ldi. Bunday shukuhli onlarda ko'nglingda ajib tuyg'ular paydo bo'lishi tabiiy hol. Eng avvalo, ko'z oldimdan butun mehnat faoliyatim o'tdi. Bu mukofotda Zarafshon shahridagi sanoat texnika bilim yurtiga o'qishga kirgan kunimdan boshlab, burg'ilash qurilmasi mashinisti darajasiga yetganimcha menga ustozlik qilgan insonlarning ham hissasi bor, deb o'ylayman. Tinch va kelajagi porloq O'zbekistonda sevgan kasbim bilan mashg'ulman. Bilimim, tajribam bilan kimgadir yordamim tegsa, bu men uchun katta baxt.

Andrey KULESHOV, Markaziy kon boshqarmasi "Muruntov" koni burg'ilash mashinisti.

Nafosat ZIYOYEVA tayyorladi.

RAG'BATGA JAVOBAN

Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil topganligining 65 yilligi munosabati bilan korxonamizning turli soha va tarmoqlarida samarali xizmat qilayotgan bir qator xodimlar qatori "Farhod" madaniyat saroyi yakkaxon xonandasi Serijan Janaxmetov "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandi.

- Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, eng avvalo, inson manfaatlari, uning qadr-qimmatini va mehnatini ulug'lashga qaratilgan. Kamtarona mehnatlarimning munosib e'tirof etilganiga menga yuksak iftixor tuyg'ularini bag'ishlaydi, - deydi Serijan Janaxmetov.

"Shuhrat" medali sovrindori Serijan Janaxmetov qadrdon maskani "Uchquduq" madaniyat saroyida ko'p yillar yosh xonandalarning professional mahorati va tajribasini oshirish yo'lida talabchanlik va jonkuyarlik bilan mehnat qildi. Iste'dodli xonanda 2015-yil sentabr oyida Qozog'iston Respublikasi poytaxtida o'n yetti davlat ishtirokida o'tkazilgan "Tarix va madaniyat" nomli xalq-

ro ko'rik-tanlovda qatnashib, faxrii 2-o'rinni, 2016-yilda Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligiga bag'ishlab tashkil etilgan "Yagonasan, muqaddas Vatan!" ko'rik-tanlovining Respublika bosqichida g'oliblikni egalladi. madaniyat saroyining "Eles" ijodiy jamoasi esa Serijan boshlab bergan an'anaga sodiq qolib, o'lis qishloq va ovullarda aholiga konsert dasturlarini uyushtirib kelmoqda.

Iqtidorli xonanda 2017-yildan "Farhod" madaniyat saroyida yakkaxon xonanda sifatida ijod qilib kelmoqda. 2018-yilda "Yagonasan, muqaddas Vatan!" tanlovining Respublika bosqichida Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 60 yilligiga bag'ishlab



ijro etgan "Buyuk konchilar" qo'shig'i bilan 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Respublikamiz va viloyatimizda o'tkazilayotgan barcha madaniy-ma'rifiy tadbirlarning yuqori saviyada o'tishida o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan S.Janaxmetovning mehnatlarini munosib baholab, 2005-yilda "O'zbekiston belgisi" ko'krak nis-

honi, 2011-yilda "Shuhrat" medali, 2023-yilda esa "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.

Mehnatga yarasha rag'bat insonni behad ilhomlantiradi. Buni o'z hayoti misolida his qilayotgan xushovoz xonanda S.Janaxmetov yangi qo'shiqlar ustida ijodiy izlanmoqda.

A.AXMEDOVA.

MAZMUNLI UCHRASHUVLAR

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida samarali faoliyat yuritib, mamlakatimizning iqtisodiy qdratini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shib kelayotgan ishchi-xodimlar mehnati munosib e'tirof etilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-noyabrda imzolangan Farmoniga muvofiq kombinat tashkil etilganining 65 yilligi munosabati bilan korxonada ishchi-xodimlarining bir guruhi yuksak Davlat mukofotlari bilan taqdirlangan edi. Ular orasida "NKMK" AJ bosh markshedyeri Shuhrat Sadinov va Shimoliy kon boshqarmasi budgetlashtirish va kontrolling bo'limi boshlig'i Maya Soy "Do'stlik" ordeni, 4-gidrometallurgiya zavodi direktori Asqar Zokirov, "Zarmitan" koni lahimchisi Razzoq Bekqulov, Navoiy mashinasozlik zavodi

quymachilik sexi boshlig'i Zafar Bobodo'stov va 1-gidrometallurgiya zavodi apparatchisi To'liq Irgashevlar "Shuhrat" medaliga sazovor bo'lishdi.

Jumladan, Shimoliy kon boshqarmasida "Do'stlik" ordeni sohibi M.Soy bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Davlat mukofoti sohibining bolalik yillari va ko'p yillik mehnat faoliyatiga bag'ishlangan rolik namoyish etildi. Shuningdek, Qo'shrabot tumanidagi Zarkent qo'rg'onida Davlat mukofoti sohiblari A.Zokirov va R.Bekqulovlar hamda Navoiy mashinasozlik zavodida "Do'stlik" ordeni sohibi

Sh.Sadinov, "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni sohibi F.Hamdamov, "Shuhrat" medali sohiblari Z.Bobodo'stov va T.Irgashevlar bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Tadbirlarda zamonamiz qahramonlari kombinatda olib borayotgan mehnat faoliyatlarini to'g'risida o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Tadbirlarda ta'kidlanganidek, ishchi-xodimlarning fidokorona mehnatlari uchun shunday yuksak Davlat mukofotlariga sazovor bo'lganliklari ularning orzu-intilishlarini amalga oshirish va jamiyat hayotida yanada faolroq va tashabbuskorroq bo'lishi uchun muhim zamin yaratadi.

"NKMK" AJ Matbuot xizmati.

■ Итоги 2023 года

ГОРДОСТЬ ЗА ПОБЕДЫ МОЛОДЫХ ТАЛАНТОВ НГМК

Сегодня современный человек не представляет своей жизни без элементов культуры и искусства. Каждый из нас посещает концерты, ходит на театрализованные представления, читает книги, слушает музыку. А родители подрастающего поколения стремятся развивать у своих детей различные таланты в культуре, искусстве и спорте. Ведь именно эти навыки и таланты создают в сознании ребенка духовные ценности и потребность к красоте и творчеству.



На протяжении многих лет создаются все условия для трудящихся и их детей в Навоийском горно-металлургическом комбинате. Сегодня в шести городах, где трудятся работники АО «НГМК», ГП «Навоийуран» и ГУ «Фонд НГМК» функционируют четыре дворца культуры и два культурно-спортивных комплекса это: ДК «Фархад» Навоийское региональное управление, ДК «Олтин водий» Зарафшанское региональное управление, ДК «Учкудук» Учкудукское региональное управление, ДК «Нурабад» и КСК «Кончи» Нурабадское региональное управление и КСК «Эшлик» Зафарабадское региональное управление. В этих учреждениях занимается более трех тысяч талантливых детей, которые насыщено и ярко проводят свободное от школы время в более 65 коллективах художественной самодеятельности. Чувство гордости вызывают победы творческих коллективов талантливых детей наших дворцов и домов культуры на областных, республиканских и международных конкурсах.

В ноябре 2023 года вокальный коллектив «Фонтерра» и эстрадно-инструментальный ансамбль «Аллегро» ДК «Олтин водий» приняли участие в VII Международном ежегодном фестивале – конкурсе «Фестиваль талантов», который проходил в городе Ташкенте, в большом зале Государственной консерватории Узбекистана. Главной целью фестиваля-конкурса было создать для детей и молодежи возможность творческого общения, выявить новые таланты, дать возможность ознакомиться с образцами национальной культуры и искусства различных стран, а также, чтоб оценить работу преподавателей вокала, музыкальных инструментов и хореографии. Фестиваль-конкурс организован при всесторонней поддержке Министерства юстиции Республики Узбекистан, Министерства культуры Республики Узбекистан, Международного Женского общественного фонда «Шарк аёли» и Государственной консерватории Узбекистана. Оценивать мастерство вокалистов и игры на музыкальных инструментах были приглашены доктор, доценты и заведующие кафедр Государственной консерватории Узбекистана. В фестива-

5 ноября 2023 года в городе Ташкент принимал участие в международном многожанровом конкурсе «Fresh drive». Танцевальный коллектив «Шок» существует с 1997 года. В 2018 году коллективу было присвоено почетное звание «Народный». За время своей деятельности ансамбль «Шок» привлек к искусству танца сотни детей, вырастил не одно поколение детей. Концертные номера ансамбля отличаются высоким уровнем исполнительского мастерства, художественного вкуса, молодым задором, увлеченностью исполнителей и влюбленностью в прекрасное искусство танца. В репертуаре ансамбля много разнообразных народных и стилизованных танцев, отражающих особенности многонациональной культуры народов, колорит праздников и обрядов. Все танцы в исполнении ансамбля отличает образность и разнообразие танцевальной лексики. В конкурсе участвовали сильнейшие коллективы из разных стран СНГ. Ансамбль Шок представил вниманию членов жюри сюжетный танец «Затерянная деревушка», где детки своим актерским мастерством и умением шокировать покорили состав жюри и завоевали Гран-при.

В июне 2023 г. танцевальный ансамбль «Дебют» ДК «Нурабад» был приглашен на международный конкурс «Огни Киргизстана» в г.Чулпоната, где талантливые звездочки, покорили сердца жюри и зрителей конкурса двумя постановками танцев «Душа» и «Испытание пустыней», заняв два первых места и Гран-при.

Говоря о необходимости участия в различных конкурсах, хотелось бы отметить рост исполнительского мастерства участников, любовь и интерес к творчеству и искусству, дух соперничества патриотизма к своей стране и немаловажно заряд положительных эмоций и мотивацию на достижение еще больших результатов.

Подводя итоги вышесказанного, а также в предверии нового года хотелось бы отметить, что у-



евал Бриллиантовое Гран-при, солисты Раззаков Улмас, Облобердиев Отабек, Тошмуродова Райхона заняли 1 место, и в номинации джазового исполнения Тошмуродова Райхона заняла 2 место. Эстрадно-инструментальный ансамбль «Аллегро» в номинации «Этно-народное исполнение» заслуженно стал обладателем Бриллиантового Гран-при, а в номинации «Эстрадно-исполнение» заняли 1 место.

В мае 2023 года коллективы ДК «Олтин водий» приняли участие в V Международном многожанровом конкурсе детского и молодежного творчества «Ритмы Евразии» в городе Бухаре и выиграли Гран при.

Народный ансамбль эстрадного танца «Шок» культурно-спортивного комплекса «Эшлик» Зафарабадского регионального управления со 2 по

дядий 2023 год для культурных учреждений комбината стал поистине ярким и незабываемым, так как огромное количество праздничных мероприятий и конкурсов, постановок спектаклей лучших театров республики и концертов заслуженных артистов наполнили досуг трудящихся НГМК и их семей положительными эмоциями и зарядом отличного настроения. А за поддержку и развитие культурного досуга трудящихся хотелось бы выразить огромную благодарность руководству АО «НГМК», ГУ «Фонд НГМК» и Совету профсоюзов НГМК.

Наргиза ХАМИДОВА,
руководитель группы по организации культурно-спортивной деятельности ГУ «Фонд НГМК».

■ “101” xabar qiladi

IS GAZIDAN ENTIYOT BO‘LING!

Statistikada ma'lumotlarga ko'ra, respublikada so'nggi yillarda kuzgi-qishki isitish mavsumida sodir bo'layotgan favqulodda vaziyatlarining aksariyati is gazidan zaharlanish holatlari bilan bog'liq. Ma'lumki, is gazi (SO) rangsiz, hidsiz, korxon sharoitida eng ko'p uchraydigan zaharli birikma bo'lib, tabiiy gaz, yoqilg'i, ko'mir, o'tin cho'g'lari to'liq yonmasligi oqibatida hosil bo'ladi. Tutun tarkibida 3 foiz, ishlangan gazda 13 foiz, portlovchi gazlar tarkibida esa 50-60 foizgacha is gazi bo'ladi.

Is gazidan odamlar odatda organik moddalarni ishlab chiqaradigan, shamollatish tizimi yaxshi ishlaymaydigan korxonalar, avtoulavlar

turar parklarida, yangi bo'yalgan va shamollatilmagan xonalarda, shuningdek, uy sharoitlarida tabiiy gaz chiqib turganda va pechka bilan istiladigan uylar, hammomlar, dam olish palatkalarda yonuvchi moddaning to'liq yonmasligi oqibatida zaharlanishi mumkin.

Is gazi organizmga nafas olish a'zolari orqali ta'sir etadi. Ushbu gaz gemoglobin bilan kislorodga nisbatan 300 marotaba kuchli birikma - karboksigemoglobin hosil qiladi. Oqibatda gemoglobinning to'qimalarga kislorod tashish xususiyati keskin pasayib, gipoksiyaga, og'ir holatlarda esa - anoksiyaga olib kelishi hamda shu tariqa inson hayotdan ko'z yumishi mumkin.

Tahlillarga ko'ra, is gazidan zaharlanish holatlarining aksariyati quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga kelmoqda:

fuqarolar tomonidan gaz yoki ko'mir, o'tin va boshqa muqobil yoqilg'i turlaridan foydalanishda xavfsizlik choralariga rioya etmaslik; nostandart (qo'lbo'la yasalgan) yoki sertifikatga ega bo'lmagan isitish pechlarini anjomlaridan foydalanish;

isitish pechlarining dudbronlarini noto'g'ri o'rnatish; gaz yoki boshqa muqobil yoqilg'iga moslashtirilgan isitish pechlarini (anjomlarini) dam olish (uxlash) xonalarga olib kirish; havo almashmaydigan xonalarni

isitishda ochiq olov (ko'mir va o'tin cho'g'lari)dan foydalanish; havoni almashtiruvchi shamollatish shaxtalari yoki tuynuklarni berkitib (to'sib) qo'yish.

Yuqoridagi sabablarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymang. Is gazidan zaharlanishdan ogoh bo'ling. Shunda o'zingiz va yaqinlaringizni ko'ngilsiz hodisalardan asragan bo'lasiz.

Akmal XAKIMOV,
JKB va NSM OYOXTTEB inspektori, katta leytenant.

Xurshid ERGASHEV,
JKB va NSM OYOXTTEB kichik inspektori, kichik serjant.

■ Культура

В преддверии Нового года, когда вокруг царит сказочная и волшебная атмосфера, уместно будет порадоваться успехам одного маленького творческого коллектива, который только начинает делать первые шаги в развитии танцевального таланта. И в этом искусном деле помогает детям руководитель, который не нуждается в представлении, стоит только назвать дело, которым она занимается много лет. Хореограф ансамбля современного танца «Соната» ДК «Фархад» - Марина Харитоновна.



МЫШКИ СОНАТЫ



В августе 2022 года Марина Харитоновна объявила о наборе детей 6-7 лет в одну из своих групп. Уже через пару дней полный состав участников был готов. Малыши пришли на первое занятие, и их папы и мамы поняли, дети – в надежных руках. Понадобилось чуть меньше трех месяцев, чтобы увидеть перемены в девочках и мальчишках, ведь многие перешли из других танцевальных кружков, спортивных секций, в которых занимались не один год. Название группа получила «Мыш», теперь Марина Владимировна ласково называет юных талантов мои Мышки.

Детские эмоции и чувства – это необработанный алмаз, они настолько чисты и непосредственны, что порой с ними бывает трудно справиться, - рассказывает родительница Анастасия. - Марина Владимировна – это не только педагог-хореограф, воспитавший уже не одно поколение детей, но еще и высококлассный ювелир и психолог. Каждый ребенок, попадающий к ней, превращается в неповторимый бриллиант, искрящийся на солнце каждой своей гранью. Хотелось бы выразить огромную благодарность этому замечательному педагогу, за то, что она отдает огромную частичку своей любви, заботы, внимания, знаний и самое главное, своего времени нашим детям.

Занятия танцами помогают повысить тонус мышц и улучшить их работу, формируют правильную осанку, повышают гибкость, развивают умение держать равновесие и координацию, - присоединяется еще одна мама Валерия. - Танцы помогают нашему сыну раскрывать и развивать талант, который заложен в нем самой природой.

Для моих девочек в их возрасте это возможность научиться лучше чувствовать свое тело, развивать выносливость, - добавляет мама Асали и Фарангиз. - Также танцы способствуют развитию эстетике. Движения становятся более плавными и нежными. Ну и, конечно, гибкость и осанка. Нравится подход Марины Владимировны к детям, строгая и требовательная, при этом очень заботливая и понимающая.

Марина Харитоновна настоящая профессионал своего дела, преданный до мозга костей педагог, руководитель и главный балетмейстер ансамбля «Соната», одна из тех, на ком держится престиж и высокая хореографическая планка Дворца культуры «Фархад», - дает комментарий заместитель директора ДК Шавкат Тухтаев. - За преданность делу и неоценимый вклад в работу, за многолетний плодотворный труд Марина Владимировна награждена медалью «Шухрат» (2008 г.), нагрудным знаком «Горняцкая слава III степени» (2013 г.), имеет звание «Ветеран НГМК» (2015 г.).

Мышата только разучивают танец, на сцене пока не выступали, ждут этого дня с большим нетерпением. Многочасовые тренировки три раза в неделю это не весь комплекс занятий. Для того чтобы выполнять сложные поддержки в танцевальных номерах, дети дополнительно ходят на акробатику, к бывшему выпускнику М.Харитоновой Азизбеку Фатиллоеву.

Акробатика - это разновидность гимнастики, включающая в себя упражнения на ловкость, гибкость, прыгучесть, силу и балансировку, - рассказывает тренер Азизбек Фатиллоев. - Она не только укрепляет тело ребенка и способствует гармоничному физическому развитию, но и по-

могает воспитать характер. Наши сонатовцы выполняют такие элементы, как перекаты, кувырки, стойки, мост, фляк и другие. Комплекс акробатических упражнений тренирует в них вестибулярный аппарат, равновесие, ориентацию в пространстве, а также развивает силу воли и тренирует физическую выносливость. Мышата удивительные дети, каждый для меня любимчик, все большие молодцы – труяги, ответственные и красивые девочки - мальчишки, которых ждет счастливая детство и большое будущее!

С утра я в школе, после обеда у меня музыка, а по вечерам - шесть раз в неделю танцы и акробатика, домой прихожу после 21.00 делаю уроки, весь мой день занят полезными делами, - рассказывает участница ансамбля София. - На танцах у меня много друзей, с ними весело играть перед началом занятий. Когда в класс входит наша учительница Марина Владимировна, мы становимся каждый на свое место и начинаем тренироваться. Особенно больно, когда нас растягивают. Но мне все равно нравится ходить на танцы. Мечтаю выступать на большой сцене!

Может быть кого-то разочарую, но скажу прямо. В хореографическом искусстве легко не бывает. Способности нужно развивать, легких побед на профессиональном поприще не бывает, - рассказывает Марина Харитоновна. - Очень много и упорно нужно трудиться. Развитие - это интересный, но не легкий труд преодоления себя, известных трудностей и непредвиденных обстоятельств. По мере взросления возрастают нагрузки, усложняются движения, совершенствуется мастерство исполнения. Но не нужно думать, что хореография лишает ребенка обычных детских радостей и делает его заложником будущей профессии. Никогда нельзя знать заранее, выйдут сегодняшние малыши на большую сцену или просто будут чудесно танцевать. И то и другое одинаково прекрасно. Главное, чтобы родители стремились развить индивидуальность ребенка, а не стремились к реализации своих желаний любой ценой.

Трудности в хореографическом искусстве заключаются в необходимости ежедневных занятий, в том числе самостоятельных, независимо от времени года, выходных дней или каникул. Мышцы и связи очень быстро «забывают» необходимые действия, которые должны быть доведены до абсолютного автоматизма. Еще одна сложность состоит в том, что хореография – это травмоопасный вид деятельности. Ответственность педагогов и исполнителей возрастает многократно. Небольшая оплошность иногда может обернуться серьезной неприятностью.

Хорошее физическое развитие, огромное трудолюбие, осознанная целеустремленность, твердость характера, желание добиваться поставленных целей, уважение и взаимоподдержка педагогов и родителей, вот, что даст отличный результат. Также родители выражают благодарность за ремонт в зале, в котором стало еще лучше и комфортней заниматься детям.

Пусть наши дети танцуют, радуются, развиваются. А мы в свою очередь стараемся сделать все возможное для их счастья!

Ситора ЯТИМОВА.

KONCHILAR HAYOTI
MUASSIS:
“NAVOIY KONMETALLURGIYA KOMBINATI” AJ

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Muharrir:
Nizomiddin SADRIDDINOV

Tahririyat manzili:
210100,
Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi,
27-uy,
“NKMK” AJ boshqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamg'armasi” DM bo'linmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta “Konchilar hayoti” gazetasi tahririyatda terildi va sahifalandi. “Noshir Lux” MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati bo'yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. **Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Sitora ASANOVA**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog'oz bichimi A2. 10800 nusxada chop etildi. Buyurtma № 700. 2023-yil 27-dekabr 11:00 da chop etishga topshirildi.